

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**AJINIYOZ NOMIDAGI NO'QUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

Magistratura bo'limi

«Psixologiya» mutaxassisligi

2 kurs magistranti NURATDINOVA GULISTANning

«Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi» fanidan

KURS ISHI

Mavzu: Psixodiagnostika fanini o'qitish metodikasi

Qabul qildi:

p.f.n. dots. Urumbaeva A.

No'qus-2012 yil.

R E J A :

KIRISH

1BOB. PSIXODIAGNOSTIKA FANINING TADQIQOT MUAMMOLARI.

1.1 Psixodiagnostika fanining predmeti va vazifalari, rivojlanish tarixi.

1.2. Eksperimental psixologik tadqiqotarni tashkil qilish, o`tkazish va olingan natijalarni qayta ishlash.

1.3. Bilish faoliyati psixodiagnostikasi.

2 BOB. PSIXODIAGNOSTIKA FANINI O`QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI.

2.1. Psixodiagnostika fanida “Kichik maktab yoshida bilish jarayonlari psixodiagnostikasi” mavzusiga laboratoriya darsi ishlanmasi.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYATLAR

KIRISH

Keyingi yillarda o'qituvchilarni psixologik bilimlar bilan qurollantirish masalasiga aloxida e'tibor berilmoqda. Xozirgi sharoitda kelajak avlodning etuk, barkamol inson qilib tarbiyalashda o'qituvchilarning o'rni benixot oshgan. SHuning uchun bulajak o'qituvchidan oliy o'quv yurtida o'z mutaxassisliklarini chuqur egallashdan tashqari o'quvchilar psixikasidagi yosh va individual xususiyatlarni farqlay olishga, bola taraqqiyoti jarayonini kuzatishdan tugri psixologik-pedagogik xulosalar chiqara bilishga o'rganish talab etilmoqda. Chunki bu – ta'lim va tarbiya sirlarini mukammal egallaydigan o'qituvchilar tayyorlashning muxim sharti xisoblanadi.

Psixologiyaning nazariy muammolarini chuqur urganmay turib, mazkur fandan xech bulmaganda sodda va bajarilishi oson bulgan amaliy mashgulotlar utkazish kunikma va malakalarini egallamay turib, o'quvchilarning psixik xususiyatlarini bilishga erishib bulmaydi, albatta.

Mamlakatimizda oliy ta'lim ko'p bosqichli tizimga (bakalavriat, magistratura, aspirantura, doktorantura) utish munosabati bilan psixologiya fanini o'qitishning uziga xos tashkil etishni taqozo etmoqda, demak, talabalarga bu soxa bo'yicha bilim berish ularda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishni takomillashtirish uchun quyidagi yirik yunalishlarda ijodiy psixologik-pedagogik izlanishlarni amalga oshirish lozim.

1. Psixologiya fanining metodologik muammolari va ularning talkini.
2. Psixologiyaning nazariy materiallari va ularning taxlili.
3. Psixologiya o'qitishda etnopsixologik mexanizmlardan foydalanish.
4. Uning ommaviy talkini, tadbikiy jabxalarini mukammallashtirish:

Ta'lim jarayonida bilish jarayonlarini shakllantirishga aloxida e'tibor berish lozim. Zero bilish jarayonlari juda murakkab faoliyat bo'lib, unda jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, abstrakt tafakkurdan amaliyotga o'tiladi, ana shundan so'ng ob'ektiv haqiqat bilib olinadi. Binobarin, biz birinchi navbatda ko'rib chiqishimiz lozim bo'lgan narsa o'quv materialini idrok qilish jarayonidir. Umumiy psixologiya kursidan ma'lumki, idrok bu narsa va hodisalarni sezgi organlariga ta'sir

etishi natijasida ularning kishi psixikasida yaxlit obrazini paydo bo'lishi bo'lib, idrok etish jarayoni ta'limda turli formalarda o'qituvchining og'zaki hikoya qilishida, suhbat o'tkazishda, leksiya o'qishida, kinodars, televizion parcha, sxemalar va ko'rsatmali qurollar ko'rsatish, ekskursiyalar o'tkazish, o'quvchining o'ziga darsliklar hamda boshqa qo'llanmalarni o'qitish tarzida o'tishi mumkin. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, idrokni tarkib toptirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda muhimdir. CHunki, fazoni, vaqtni va xarakatlarni idrok etishda ham yosh xususiyatlarda turli farqlar mavjud bo'ladi.

Kurs ishining maqsadi: Psixodiagnostika fanini yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali oqitish usullarini o'rganish va ishlab chiqish.

Buda quydagicha vazifalar bajariladi:

- mavzu yuzasidan pedagogik va psixologik adabiyotlarni o'rganish;
- psixodiagnostika fanining dolzarb muammolari bilan tanishib chiqish;
- o'qitishning yangi usullarini o'rganish;
- psixologiya fanida zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga dars ishlanmasini tayyorlash;
- mavzu yuzasida xulosalar tayyorlash.

1BOB. PSIXODIAGNOSTIKA FANINING TADQIQOT MUAMMOLARI.

1.1 Psixodiagnostika fanining predmeti va vazifalari, rivojlanish tarixi.

Amaliy psixologiya tizimida psixodiagnostika fani alohida uz o'rnini egallaydi. Chunki xaxsni har tomonlama bilish uchun avvalo uning individual psixologik ususiyatlari, o'qish, mexnat, mulokot Jarayonlarida uchraydigan psixologik kiyinchiliklar, qobiliyat va qiziqishlar taraqqiyotiining uziga xos tomomnlarini yaxshi o'rganish talab qilinadi. Bu asosda esa shaxs psixik taraqqiyotiining muayyan konuniyatlarini aniqlash, konkret psixologik holat va buzilishlar sabablarini ochib berish imkoniyatlari yaratiladi.

Psixodiagnostikaning predmeti ko'pincha inson psixikasining uziga xosligini aniqlash maqsadida turli-tuman diagnostik metodlarni qo'llash sifatida qaraladi. Psixodiagnostika-shaxs indvidual psixologik xususiyatlarini o'lchash va aniqlash metodlarini ishlab chiqaruvchi psixologiya fanining sohasidir.

Psixologik diagnostika fan sifatida 19 asr oxirida vujudga keldi. Xuddi shu davrda psixologiyada o'lchash g'oyasi keng tarkaldi. Psixodiagnostikaning mustaqil fan sohasiga aylanishi olimlarning insonlar Psixodiagnostikasidagi individual farqlarga qiziqishining ortishi bilan bog'langan.

Psixodiagnostika psixologik diagnoz qo'yish haqidagi fandır. Bunda diagnoz ko'rsatkich va tavsifnomalarni birgalikda taxlil qilish asosida tekshiriluvchining holati va xususiyatlari haqidagi xulosalardan iboratdir.

Psixologik diagnoz (diagnosis-grekcha aniqlash, bilish degan ma'noni anglatadi)- shaxs individual psixologik xususiyatlarining ayni vaqtdagi holatiga baxo berish, rivojlanishni oldindan aytib berish, ya'ni prognoz qilish va psixodiagnostik tekshirish vazifalaridan kelib chiqib, tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan psixolog faoliyatining sunggi natijasidir.

Psixodiagnostik tadqiqotar amaliyotda psixologik diagnoz qo'yishning 3 bosqichi farqlanadi. Bo'lar:

1. Simptomatik diagnoz bosqichi.
2. Etmologik diagnoz bosqichi.
3. Tinologik diagnoz bosqichi

Simptomatik diagnozda dasturi mavjud bo'lgan har qanday EHM bajarishi mumkin bo'lgan tadqiqotdan natijalar qayta ishlanadi.

Etnologik diagnoz qo'yida biror xususiyatning mavjudligigina emas, balki uning kelib chiqish sabablari ham hisobga olinadi.

Tipologik diagnozda sinalluvchi shaxsning tuzilishida olingan natijalarning ahamiyati va o'rnini aniqlanadi.

Psixodiagnostika bir tomondan nazariy fan bo'lsa, boshqa tarafdin psixolog faoliyatining amaliy sohasidir. Nazariy fan sifatida Psixodiagnostika validlik va ishonchlilik darajasi yuqori bo'lgan diagnostik vositalarni ishlab chiqish qonuniyatlarini aniqlaydi. Psixodiagnostika nazariy fan sifatida psixologiya fanining boshqa sohalari bilan uzviy bog'langan. Psixologik fikrlarning to'g'riligini amaliyotda tekshirib chiqish imkonini sezadi.

Masalan, insonlar faoliyati motivlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Shunday ekan, turli xil kishilarda turli motivlarni aniqlash metodlarni topish talab qilinadi.

Psixodiagnostika psixologiyaaning boshqa sohalari -umumiy psixologiya; ijtimoiy, differentsial psixologiya, tabiiyot ish davrlari, psixologik maslahat, harbiy psixologiya, mehnat va sport psixologiyasi bilan uzviy aloqada.

Psixodiagnostika fani ta'lim-tarbiya amaliyotida, pedagogik faoliyatda alohida ahamiyatga ega. Bu sohada psixodiagnostik tadqiqotlar muayyan vazifalarni xal qiladi. bo'lar:

1. Diagnostika uchun zarur ma'lumotlarni olish. Bunda bola psixik holati va shaxsi xususiyatlarining ba'zi belgilarini o'rganish maqsadida tadqiqot olib boriladi. Olingan ma'lumotlar yordamchi harakterga ega bo'lib, bola xulq-atvorining kuzatilgan xususiyatlari, uning psixik funksiyalari taraqqiyoti darajasi bilan taqqoslashda foydalaniladi.

Psixodiagnostik tadqiqotlar bola psixik funksiyalari rivojlanish darajasining, aqliy taraqqiyoti darajasi, yosh va ma'lumot bilan uzaro bog'likligini o'rganish uchun ham o'tkaziladi.

2. Psixik taraqqiyoti o'zgarishini o'rganish uchun zarur ma'lumotlarni to'plash. Psixodiagnostik tadqiqot ma'lum bosqichda bola psixik taraqqiyoti darajasini anglash hamda bola psixik hayoti taraqqiyoti xususiyatlari rivojlanishda, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonida o'tkaziladi.

O'yin hamda o'qish faoliyatida ko'p martalab o'tkazilgan eksperimental-psixologik tadqiqotlar bola shaxsining shaqllanishi va rivojlanishiga ma'lum faoliyatning ta'sir ko'rsatkichi bo'lishi mumkin.

Bolada o'tkazilgan psixodiagnostik tadqiqotlar muhim prognostik ahamiyatga ega. Chunki qo'llanilgan turli metodlarning o'quv-tarbiyaviy ta'sirini hisobga olgan holda shaxs rivojlanishi istiqbollarini aniqlash imkoni yaratiladi.

3. Aqliy zaiflik darajasini yoki boshdan kechirgan kasallik tufayli psixik kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik tadqiqotlar maxsus yoki yordamchi maktabda o'qishi haqida masala xal bo'layotganda tibbiy pedagogik hay'at tomonidan foydalanilishi mumkin.

4. Bolalarda paydo bo'lgan yetarlicha o'rganilmagan yangi psixik holatlarni tahlil qilish uchun ilmiy maqsadda psixologik tadqiqot o'tkazish. Vazifa bunday qo'yilganda tadqiqotlarni qiziqtirgan masala bo'yicha katta guruhlarda tadqiqot o'tkaziladi. Bunda olingan natijalarning statistik ishonchliligi katta ahamiyatga ega.

Psixodiagnostika mustaqil fan sifatida 19 asrning oxirida vujudga keladi. Bu fanning paydo bo'lishi F.Galton (1879); Dn.Kettel (1890); N.Ebbinxauz (1981); A.Bine (1896) nomlari bilan uzviy bog'langan. Bu olimlar o'tkazgan tadqiqotlarda individual farqlarni o'rganishning yangi statistika asoslangan kuroli-test ishlatish boshlangan.

Mashhur ingliz olimi F.Galton 1884-1885 yillar davomida bir necha seriyalarda tajriba o'tkazdi. Bunda 5dan 80 gacha bo'lgan xoxlovchilar arzimagan haq evaziga laboratoriyada o'zlarining jismoniy xususiyatlari-kuchi, reaksiya tezligi; organizmning fiziologik imkoniyatlari hamda psixik xislatlarini 17 ko'rsatkich bo'yicha tekshirishlari mumkin edi. Bu ko'rsatkichlar qatoriga shuningdek, buy, ogirlik, upkaning tiriklik sigimi, kaft va musht kuchi; harflarni eslab qolish qobiliyati ko'rishl o'tkirliligi, rangni farqlash kabi ko'rsatkichlar ham kiritildi.

Tulik dastur bo'yicha hammasi bo'lib 9337 kishi tekshirib chiqildi. F.Galtonning fikriga ko'ra, testni o'tkazish eksperimentni talab etadi. SHunday qilib, eksperiment fanning haqiqiy asosi, poydevori deb qarala boshlandi. Bu haqida D.Kattel ham ta'kidlab o'tgan; qachonki asosini eksperiment va o'lchash, aniqlash tashril qilar ekan, shundagina psixologiya haqiqiy va aniq fan bo'lishi mumkin.

1980 yilda nashr qilingan ilmiy ishidan u 50 turdagi laboratoriya testlarining ruyxatini keltiradi. Xozirgi kunda ularni testdan ko'ra ko'prok topshiriklar deb atash to'g'riroq bo'ladi. Bu topshiriklar testlarga qo'yiladigan talabalardan faqat ikkitasiga ega edi: uni qo'llash ko'rsatmasi mavjud hamlda tadqiqotning (laborator) ilmiy harakteri ta'kidlangan edi. Bu talablarga ko'ra laboratoriya yaxshi jixozlanishi : testni o'tkazish vaqtida begonalar bo'lmasligi; barcha tekshiruvchilarga bir xilda ko'rsatma berilishi, ya'ni ular hamma qilishlari keraqligini yaxshi o'zlashtirib olishlari lozim edi.

F.Galton va D.Kattel dastlabki asarlari nashr etilgach, test metodi g'oyasi turli mamlakat olimlarining diqqatini uziga tortdi. SHu tarika uning tarafdorlari va qarshi bo'lgan olimlar paydo bo'la boshladi. Bu metodni qo'llash tarafdorlariga qo'yidagilarni kiritish mumkin: Germaniyada- G.MYunsterberg, S.Krenelin, V.Onri, Frantsiyada- A.Bine, AQSH da- DJ.Gilbert va boshqalar. Bu tadqiqotchilar yangi turdagi, ya'ni psixologiyani amaliy extiejlari bilan bog'lashga uringan olimlar edilar. Biroq amaliy tadqiqotarga intilish psixologiyada fandan yiriklashish deb baxolandi. DJ.Kattelning ta'kidlashicha, u uzining dastlabki testlarini laboratoriya tadqiqotarida individual farqlarni aniqlash maqsadida 1885 yilda qo'llangan, ammo V.Vundtning qarshiligi tufayli ularni nashrdan chiqara olmadi.

Asrimizning 20-yillarida Psixodiagnostika fan sifatida keng shaqlana bordi. Bunga shveytsariyalik psixolog va psixiatr X.Rorshaxning "Psixodiagnostika" asarining nashr etilishi asosiy turtki bo'ldi. Bu kitobning nashr etilishi (1921) bilan psixologik diagnostika taraqqiyotiida yangi davr boshlandi. Psixodiagnostika taraqqiyotiining ushbu davri psixometriyadagi shaxsni urginishning yangi metodlari bo'lgan proektiv metodlar bilan bog'lik edi. Proektiv psixologiya bir butun shaxsni

o'rganish mumkin emas deb talkin qiluvchi psixometrik nukta-nazar va bixeviorizmga qarshi e'tiroz bildiruvchi fan sifatida rivojlana boshladi.

Psixodiagnostikada yangi metodlar yaratilishi bilan birga birlashtirilgan testlar qo'llanila boshlandi. Masalan, aqlni o'rganish metodlari orasida amerikalik psixolog D.Vekler (1939-1955) ning subtestlari keng tarkaldi. Yangi proektiv metodlar ham yaratilib, keng qo'llanila boshlandi (amerikalik psixolog G.M.Yurrey (1935-1943) ning tematik oppertseptsion testli (TAT), nemis psixologi S.Rozenshveygning frustratsiyaga bo'lgan reaksiyani o'rganish testi va boshqalar) Rus psixologiyasida diagnostik metodlardan foydalanish uz tarixiga ega. Bunda Psixodiagnostika rivojlanishining 2 bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi bosqichda 20-yillarning boshidan 30 yillarning urtasigacha bo'lgan davrni uz ichiga oladi. Bu davrda pedagogika va psixotexnikada test metodlari keng tarkaldi.

Bu davrda psixologik diagnostikaning rivojlanishida M.S.Bernshteyn, L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, S.G.Gellershteyn, N.D.Levitov va boshqalar katta xissa kushdilar. Olimlar tomonidan ilgari surilgan qator ilgor fikrlar keyinchalik rivojlantirilmadi, chunki 1936 yildan keyin bu sohadagi barcha tadqiqotar tuxtatildi va psixodiagnostikaning keyingi rivojlanishiga Jiddiy tusik vujudga keldi.

Psixodiagnostika rivojlanishidagi 2-bosqich 50-60 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda aqliy taraqqiyotini o'rganishga katta e'tibor beriladi.

Rus psixologlari tomonidan ishlab chiqilgan aqliy taraqqiyoti sifatiy taxlil qilish tamoyilli qator vazifalarni xal qilishda uz maxsuldorligini namoyon qildi va ko'pgina tadqiqotarda uz aksini topdi.

Respublikamizda psixodiagnostikaning rivojlanishiga M.G.Davletshin, B.R.Kodirov, G.B.Shoumarov, E.G.Goziev, V.A.Tokareva, R.Z.Gaynutdinov kabi olimlar uz xissalarini kushganlar.

1.2. Eksperimental psixologik tadqiqotarni tashkil qilish, o'tkazish va olingan natijalarni qayta ishlash.

Shaxs xususiyatlari va psixik taraqqiyoti darajasini aniqlash uchun turli eksperimental psixologik metodlardan foydalaniladi. Psixologik tadqiqotlarda foydalaniladigan metodikalar u yoki bu faoliyat jarayonida shaxs psixik xususiyatlarining namoyon bo'lishini aniqlashdan iborat. Eksperimental metodikalarni ishlab chiqish va o'tkazish psixolog va tadqiqotchilarning asosiy vazifalaridir. Eksperimental topshiriqlar majmui shaxs psixik taraqqiyotini, uning aqliy darajasini hamda individual psixologik xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan. Bular eksperimental tadqiqot sharoitida so'zli, predmetli va psixometrik metodikalar yordamida amalga oshiriladi. har bir konkret xolda olingan ma'lumotlarni sifatli taxlil qilish va ularni boshqa metodlardan olingan natijalar bilan bog'lash zarur.

Psixodiagnostikada metodikalarning ishonchliligi muhim hisoblanadi. Metodikaning ishonchliligi olingan natija qanchalik to'g'ri ekanligini ko'rsatadi. Har qanday metodikaning, testning ishonchliligi o'rganilayotgan psixologik xususiyatlarning ularda aks etishi nuqta nazaridan to'g'ri qo'llashni harakterlaydigan ma'lumotlar majmui sifatida karalmog'i kerak.

Testning ishonchliligi- psixologik tadqiqot aniqligini belgilovchi test sifatleri ko'rsatkichidir. Testning ishonchliligi ba'zi xollarda shart va maqsadi jihatidan 2 ta bir xil testning ekvivalentligi darajasining namoyon bo'lishi sifatida karalsa, ba'zi xollarda qayta o'tkazilganda natijalarning barabarligi (stabiligi) sifatida karaladi. Validlik- test sifatliigi asosiy ko'rsatkichlaridan biri. Testning qanchalik validligi yukori bo'lsa, unda tekshirilayotgan ishlar shunchalik yaxshi aks ettiriladi. Masalan, intellektni o'lchash validligi " intellekt" tushunchasining ta'rifiga; Undan kelib chiqqan xolda tuzilgan test topshiriqlari tarkibiga; empirik ko'rsatkichlarga bog'lik bo'ladi.

Shunday qilib, maqsadga muvofik tanlangan metodika va testlar psixik faoliyat kurinishlarini to'liq va har tomomnlama o'rganish imkoniyatini beradi. Tadqiqotchi tadqiqot o'tkazish uchun u yoki bu metodikani tanlaganida ko'rsatmani

salgina uzgartirganda metodikaning yo`nalishi uzgarib ketishini nazarda tutish kerak. Topshirikni bajarishga kirishishdan oldin tekshirilovchi ko`rsatmani to`g`ri tushunganligiga ishonch xosil qilishi kerak. Bajarilaetgan topshirikning natijalari ma`lum darajada shunga haml bog`lik bo`ladi.

Tadqiqot o`tkazish uchun eksperimental metodikalarni tanlashda qo`yidagilarga e`tibor berish zarur:

a) tadqiqot maqsadi, psixik taraqqiyoti darajasini aniqlash, uning yoshga, ma`lumotiga mosligi, shaxs xususiyatlarini aniqlash;

b) siniluvchining yoshi va uning hayot tarixi, uning ta`lim va tarbiyasi amalga oshirilaetgan sharoit;

v) tekshiriluvchining eksperimental tadqiqotga moslashishi, mulokotga kirishishi, verbal aloqa urnatish xususiyatlari.

Tanlangan eksperimental psixologik metodikalarni tekshiriluvchiga kiyinligi usib borishi darajasida berish kerak.

Psixolog eksperimentator faoliti tadqiqotda olinadigan natijalarga ta`sir qiladigan muayyan xususiyatlarga ega. SHuning uchun bo`lajak tadqiqotchi M.P.Kanonova ta`kidlaganidek, uzida qo`yidagi sifatlarni shaqllantirmogi lozim:

a) tadqiqot karorlarini tez va aniq tuzishi ;

b) uz diqqatini tekshiriluvchi topshirikni qanday bajarilaetganligiga va uning xulq-atvoriga kuzatishga qaratishi;

v) bola bilan yaxshi aloqaga kirishi, uning hamla aytganlarini ezib, uning xulqidagi ba`zi reaksiyalarini to`g`ri baxolash qobiliyatini yukotmaslik.

Eksperimental psixologik tadqiqot natijalari ishonchli bo`lishi uchun tadqiqotni o`tkazishda muayyan reja tartibga amal qilishi kerak. Dastlab tekshiriluvchi haqida umumiy ma`lumotlar tuplashga harakat qilinadi, suxbat o`tkaziladi. Bunda tadqiqotchi tekshirilovchi bilan ijobiy xissiy aloqa urnatib, bajariladigan topshirikning maqsad va vazifalarini tushuntirib beradi, sungra tadqiqotning eksperimental kismiga utish mumkin.

Eksperiment jarayonida olingan natijalarni puxta ezib berishi keyingi siflatli taxlilni eritib beradi. Eksperimental psixologik tadqiqot bir necha bosqichda

o`tkazilishi zarur. 1 bosqichda tadqiqotchi tekshiriluvchi bilan aloqa urnatadi,uning qiziqishi va xarakterlarini aniqlaydi. 2-bosqichda olingan ma`lumotlarga aniqlik kiritiladi, boshqa metodlarga olingan natijalar bilan uzaro bog`liklik aniqlanadi. 3-bosqichda tajribada olingan natijalar taxlil qilinadi,umumlashtirilib xulosa chiqariladi.

Olingan ma`lumotlar asosida tadqiqotchi tekshiriluvchi shaxsning harakteri, aqli, xotirasi, xissieti psixik buzilishlar mavjudligi yoki yukligi haqida xulosa chiqaradi.

1.3. Bilish faoliyati psixodagnostikasi.

Diqqatni o'rganish uchun metodikalar. Diqqatda shaxsning faoliyati va uning ob'ektiv vokelikdagi predmet va xodisalarga tanlab munosabatda bo'lishi o'z aksini topadi. Unda inson psixikasining boshqaruvchanlik roli namoyon bo'ladi: Diqqat siz maqsadga muvofiq ish yuritishi mumkin emas.

Har qanday masalani yoki har qanday hayoti y muammoni echish kishidan mazkur masalaning mohiyatiga harakat uslubiga diqqatni tuplash va qaratishni talab qiladi. Inson psixik faoliyatida diqqat aloxida urinni egallaydi. Diqqat uzi mustaqil psixik jarayon bo'lmasa-da, inson psixik faoliyatining barcha sohalarida ishtirok etadi. Diqqat ongning zarur ob'yektga yo'naltirilishi va qaratilishida ayni paytda boshqa narsalarga chalg'imaslikda ifodalanadi. Diqqat bir qancha xususiyatlarga ega, bo'lar diqqatning xajmi yoki ko'lam, diqqatning taksimlanishi, tuplanishi, barkarorligi va uning bir ob'ektdan boshqa ob'ektga yoki bir faoliyatdan boshqa faoliyatga o'tkazilishidir.

Diqqatning xususiyatlarini o'rganish uchun bir qancha eksperimental metodlardan foydalaniladi. SHunday metodikalardan biri Koss kubiklari deb ataladi. Ushbu metodika 1923 yilda S.Koss tomonidan taklif etilgan bo'lib, fazoda ish tutish diqqat, ziyraklik, ko'rish-yasash, xususiyatlarini o'rganishga mulJallangan. Bu metodika D.Vekslarning (1939-1955) yillar metodikasiga aqlni tekshirish sub testi sifatida kiritildi.

Tajriba o'tkazish uchun bir xilda buyalgan plastmassa yoki egoch kubiklardan foydalaniladi. Kubiklarning xajmi 3x3 sm kattalikda. Bunda shaqli va rangi har xil figuralar chizilgan 10 ta rasm zarur bo'ladi. Sinaluvchiga qo'yidagicha ko'rsatma beriladi: "SHunday figurani 4 ta kubikdan yasang" rasmning birinchi namunasi ko'rsatiladi va sinaluvchi taklif etilgan figuralarni kubiklardan yasay boshlaydi. Kubiklarni rasmning ustiga qo'yib topshirikni bajarishi mumkin emas. Vaqt hisoblga olib boriladi. Topshirikning bajarilishi aniqligiga va uzoqligiga bog'lik ravishda miqdoriy baxo qo'yiladi. Burdon korrektur sinovi.

SHaxs faol diqqatining xususiyatlarini uning kuchirilishini o`rganish uchun B.Burdanning korrektur sinovi metodikalaridan foydalanish mumkin. Bu metodika diqqatning tebranishini ko`rishl analizatori uzoq vaqt ishlaganda bir xil kuruv kuzgatuvchilarga nisbatan sinaluvchining charchashini aniqlashga imkon beradi. Buning uchun P.A.Rudik tomonidan uzgartirilgan Burdan testi maxsus qog`ozda ko`rsatiladi. Qog`ozda harflar tasodifiy ravishda ezilgan bo`lib sinaluvchi ularning 2 tasi yoki 4 tasini uchirishi kerak. Bunda eksperimentator har 30 yoki 60 soniyada sinaluvchi kalami to`rganl joyni belgilab qo`yadi. shu bilan birga barcha topshirikni bajarish uchun ketgan umumiy vaqt haml hisobлга olinadi.

Tajribani individual va gurux bilan haml o`tkazish mumkin. Tajribani boshlashdan oldin sinaluvchilarga qo`yidagicha ko`rsatma beriladi.

"Oldilaringizda harflar ezilgan qog`oz turibdi, sizlar bu harflarni diqqat bilan kuzdan kechirib ularning ichidan AMKZ harflarini topib vertikal chiziklar bilan uchirib chiqasiz. "Boshlang" deyilgandan sung, ishga kirishasiz va "tuxtang" deganda ishni bas qilasiz. "SHundan sung bir dakika davomida sinaluvchilar mashk qilidirilib utgatiladi. Mashklardan sung, sinaluvchi asosiy vazifani bajarishga kirishadi. Tajriba 5 daqiqa davom etadi.

Xuddi shuningdek diqqatning boshqa xususiyatlari diqqatning ko`chishi diqqatning taqsimlanishi va xajmini aniqlash uchun turli metodikalardan foydalanish mumkin.

Xotirani o`rganish uchun metodikalar. Xotira - insonning bilish jarayonlaridan biridir. Aloxida psixik jarayon bilish bilan bir qatorda xotira boshqa barcha psixik jarayonlar uchun ham zarur hisobllanadi. Xotira inson hayotida Juda katta urin egallaydi. CHunki xotirasiz inson xech qanday utmish taJribaga ega bo`la olmaydi. Bilimlarni uzlashtira olmaydi.

Xotirada bir necha jarayonlar farqlanadi. Bo`lar-esda olib qolish,esda saqlash, kayda esga tushirish va unitish. Bu jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog`langan bo`lib, esda saqlash qanday qilib esda olib qolganligida tez va puxta esga tushirish qanchailik xotiraga mustaxkam saqlanishiga bog`lik bo`ladi. Insonning uz oldiga qo`yadigan maqsadiga karab, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira farqlanadi. Esda saqlash

muddatiga ko`ra xotiraning uzoq muddatli, kiska muddatli va operativ xotira turlari mavjud. Bo`lardan tashkari yana harakat xotirasi. So`z mantikli xotirasi, obrazli xotira va emmotsional xotira turlarini ajratib ko`rsatish mu`mkin.

Xotira tomonlari uning uziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun bir kancha metodikalar ishlab chiqilgan. shulardan ba`zilari bilan tanishib chiqamiz. Meyli testi yordamida ko`rish va eshitish xotirasini o`rganlamiz.

R.Meyli testi 1961 yilda ishlab chiqilgan bo`lib, ko`rish va eshitish xotirasini o`rganishda foydalaniladi. Tadqiqot 2 bosqichda o`tkaziladi.

1-bosqichda rasmda tasvirlangan predmetlarni xotirada olib qolish va ko`rish xotirasi o`rganiladi.

2-bosqichda tadqiqotchi o`qib bergan so`zlarni predmetlarning nomlarini eshitib esda olib qolish qobiliyati o`rganiladi.

Bu tadqiqot bosqichlari bir vaqtda o`tkazilmaydi. shu sababli xotiraning o`rganilayotgan xususiyatlarini yaxshilab taxlil qilish uchun imkon yaratiladi.

Tajribani o`tkazish uchun turli predmetlar tasvirlangan 60 ta rasm 2 seriyada va 60 ta so`zlar tuplami 2 qatorda zarur bo`ladi. Ko`rish xotirasi o`rganilayotganda qo`yidagi ko`rsatma beriladi. "Xozir men sizga turli predmetlar tasvirlangan rasmlarni ko`rsataman, siz ularning nomini istalgan tartibda aytasizlar".

Rasmlarning har biri 2 soni davomida ko`rsatiladi. 10 soniyalik tanaffusdan keyin sinaluvchi predmetlarni aytadi. Eksperimentator to`g`ri aytilgan predmetlarni haml rasmda mavjud bo`lmagan predmetlarning nomini haml ezib bormaydi.

Rasmlarning 2 seriyasi boshqa kuni so`zlar qatori bo`yicha tajribalar haml boshqa vaqtda o`tkaziladi.

Eshitish xotirasini o`rganish bo`yicha tadqiqot haml shu tarzda o`tkaziladi. Sinaluvchiga qo`yidagicha ko`rsatma beriladi: "Xozir sizga so`zlar qatorini o`qib beraman, siz eshitib bo`lgach ularni istalgan tartibda aytib berasiz".

Tadqiqotchi tadqiqot qatoriga sinaluvchi aytgan barcha so`zlarni takror aytilgan hamlda mavjud bo`lmagan so`zlarni ezib boradi. Olingan natijalar foizlarda miqdoriy o`lchash orqali taxlil qilinishi mumkin. Piktogramma metodi. Bivosita esda olib qolish xususiyatlarini piktogramma yaxshi raqamli assotsiatsiyalar metodi

orqali haml o`rganish mumkin. Piktogramma eksperimental psixologik tadqiqot usuli sifatida 1 marta L.V.Zankov (1935 yil) tomomnidan qo`llanilgan. Sinaluvchi aniq so`zni rasmdagi tasvir orqali eslab qolishi kerak. Sinaluvchi so`z va tasvir urtasidagi aloani uylab topishi kerak. Bu esa keyinchalik so`zni qayta esga tushirishga imkon beradi.

Xotira esda olib qolish xususiyatlarini " umumiy psixologiyadan praktikum" da berilgan boshqa metodikalar yordamida haml aniqlash mumkin.

**Aqliy faoliyatni o`rganish uchun metodikalar.** Inson bilish faoliyati tarkibiga aks ettirishning olish shaqli bo`lgan tafakkur jarayoni haml kiradi. Ma`lumki vokelikni bilishning ikki yo`li mavJud bo`lib, ular bevosita va bavosita bilish yo`llaridir. Tafakkur-tashki duneni bavosita va umumlashgan xolda aks ettirish Jarayonidir. Xissiy bilish imkoniyati mavJud bo`lmagan biz tafakkurga maroJaat qilamiz. YA`ni bu xolda tashki duneni taxlil kmilish sintez taqqoslash umumlashtirish, mavxumlashtirish usullari orqali bila olamiz.

Insonning aqliy faoliyati bilishga va taJribaga iJodiy tafakkurga asoslanadi. yangilikni yaratish insonda ilgari idrok etilgan predmet va xodisalalar haqida tasavvursiz amalga oshmaydi. Aqliy faoliyat xususiyatlari boshqa oliy psixik funktsiyalar - xotira, iroda, xissietning hamlda shaxsning individual psixologik xususiyatlari, qiziqishlar, extiejlar, qobiliyatlar,bilimlar,kunikmalar,odatlar bilan uzviy bog`langan.

Inson aqliy faoliyati turli metodikalar va ishlab chiqilgan maxsus testlar yordamida o`rganiladi. SHunday metodikalarning ba`zilari bilan tanishib chiqamiz.

Intellektni o`rganish metodikasi. Inson aqliy faoliyati o`rganishning keng tarkalganmetodikalaridan biri - Amerikalik psixolog D.Veksler tomomnidan ishlab chiqilgan testlardir. Bu testlar asosan katta yoshdagilar intellektligini tyoshkrishiga mulJallangan bo`lib, keyinchalik 5 yoshdan 15 yoshgacha bo`lgan bolalarni tekshirish uchun uzgartirishlar kiritildi.

Rossiyada birinchi bo`lib Veksler shkalasi V.M.Buxterev nomli Leningrad psixonevrologik ilmiy - tadqiqot institutida moslash tirilgan. Ushbu metodika B.G.Anonev (1969) maktabi psixologlari tmomnidan intellekt taraqqiyotiini uzoq

yillar o'rganishda, jumladan bolalarda psixik taraqqiyotidan chetga chiqishlar va orkada qolishlari differentsial-diagnostika qilishda keng qo'llanilgan.

Mazkur metod 11 ta alohida tuzilgan sub'ektlardan iborat bo'lib, ularning 6 tasi verbal (so'z bilan) va 5 tasi noverbal (so'z bilan) topshiriklardan tashqil topgan.

Birinchi subtest-umumiy bilimdonlik subtesti bo'lib, nisbatan sodda ma'lumotlar va bilimlardan xabardorlik tekshiriladi. Ushbu subtest 30 ta savoldan iborat bo'lib, har bir to'g'ri Javob 1 ball bilan baxolanadi.

Ikkinchi subtest-umumiy anglanganlikni o'rganishga xizmat qilib, muammoli vaziyatni, iboralarning mazmunini tulik tushunishga qaratilgan. Ushbu subtest fikrlash qobiliyatini, ijtimoiy me'rlarni tushunishni baxolaydi. Sinaluvchidan tasvirlangan vaziyatda mumkin bo'lgan echimlar haqida Javob berish talab qilinadi. Bunda 14 ta savol taklif qilinadi. Javobning aniqligiga karab baxo qo'yiladi. Masalan; 0,1,2,.

Uchinchi subtest-arifmetik topshiriklarnidan tuzilgan. Bunda sinaluvchi Diqqatining tuplanishi, sonli ifodalarni tez echa olish tekshiriladi. Sinaluvchidan arifmetik masalalar seriyasini ogzaki echish talab qilinadi. Javobning aniqligiga, ketgan vaqtga karab baxolanadi.

Turtinchi subtest- narsa va xodisalardan uxshashlikni topishga muljallangan bo'lib, tushunchalarni taqqoslashni nazarda tutadi. Bunda tushunchalarning shaqllanganligi, klassifikatsiyalash, taqqoslash mavxumlashtirish qobiliyatlari tekshiriladi. Sinaluvchiga 16 Juft tushunchalar beriladi va ulardan tushunchalar Jufti urtasidagi umumiylikni topish talab qilinadi. Umumlashtirish daraJasiga bog'lik ravishda 0 dan 2 balgacha baxo qo'yiladi.

Beshinchi subtest- son qatorlarini idrok qilishdan iborat bo'lib, to'g'ri va teskari tartibda izoxlab berishni takozo qiladi. Kiska muddatli xotira va Diqqatni o'rganishga muljallangan, ikki kismdan iborat: sonlarni to'g'ri va teskari tartibda eslab qolish va takrorlashdan iborat. Ung va teskari takrorlashlarni baxolash qatordagi to'g'ri esga tushirilgan raqamlar soniga teng. Subtestning umumiy baxosi ung va teskari takrorlashlarning umumiy baxosiga teng.

Oltinchi subtest- lugat deb atalib, odamlarning lugat boyligini aniqlashda qo'llaniladi. O'g'zaki tajribani o'rganishga muvaffaq bo'lgan ushbu subtestda 40 ta so'z ma'nosini tushuntirish uchun beriladi. Sinaluvchi topshirikni bajarishiga karab 0 dan 2 ballgacha baxo qo'yiladi.

Etinchi subtest- rasmlardan etishmaydigan detallarni topishga qaratilgan bo'lib, har bir ekspozitsiyani kuzatish uchun 20 sekund vaqt ajratiladi. Ushbu subtest ko'rishl idroki xususiyatlarini, kuzatuvchanlikni, muhim kislarni farqlay olish qobiliyatini o'rganishga muvaffaq bo'lgan. Sinaluvchiga 20 ta rasm ko'rsatiladi, ularning har ibrida etishmaydigan kismni yoki mos emaslikni topish zarur. To'g'ri Javob bir ball bilan baxolanadi.

Sakkizinchi subekt- rasmlarda izchilligi (ketma-ketligi) ni urgatish bilan bog'likdir. Buning uchun turli mazmundagi, izchillik printsiPGA oid rasmlar tanlanadi. Topshirik echimi 4-6 ballargacha baxolanadi.

Tuqqizinchi subekt- Koos kubiklari deb atalib, insonning fazoviy tasavvurlari va konstruktiv fikr Yuritishlarini aniqlash uchun xizmat qiladi. Topshiriklar shartiga ko'ra berilgan standart kubiklarni kuz bilan kuzatishdan ma'lum konstruksiya moxiyatiga kuchish nazardatutiladi.

Ushbu subtest kislardan butunni xosil qilishi qobiliyatini, sensomotor koordinatsiyani tekshirishga qaratilgan. Sinaluvchi berilgan namunaga karab har xil rangni kubiklardan shunday figuralar yasashlari kerak. 10 ta figura beriladi. Har bir topshirik bo'yicha vaqt chegaralangan bo'ladi. Baxolar aniqlikka va ketgan vaqtga bog'lik bo'ladi.

Uninchi subtest-figurani ko'rsatish deb nomlanib, aloxida kism va bo'laqlarni kuzatish orqali yaxlit figurani vujudga keltirish yoki aksincha, holatni namoyon qilish nazarda tutiladi. bunda sinaluvchiga ma'lum ketma-ketlikda turtta figuraning kislari beriladi, lyokin bu kislardan nima yasash keraqligi a tilmaydi. Topshirikning qanchailik to'g'ri bajarilganligiga hamlda sarflangan vaqtga karab baxolanadi.

Un birinchi subtest-raqamlar simvolidan iborat bo`lib, tartibsiz Joylashgan simvollarni 90 sekund ichida uz o`rniga qo`yish talab qilinadi. Ushbu subtest ko`rishl harakat malakalarini uzlashtirganlik darajasini aniqlashga muljallangan.

Test natijalarini qayta ishlashda verbal va noverbal subtestlarning har biri bo`yicha olingan ballar yigindisi topiladi. Olingan ballar shkala ballariga aylantirish jadvaliga muvofik har bir aloxida subtestlarni bajarish natijalarining standart baxolarini olish mumkin. Olingan ballar yigindisi bo`yicha (testning aloxida verbal va noverbal kislmlari bo`yicha) va jadvaldagi natijalar bo`yicha - verbal shkala baxolari, -noverbal shkala baxolari va umumiy ko`rsatkichlari aniqlanadi. Veksler testi bo`yicha ko`rsatkichlar talkini yoki me`rlarini hisoblag olgan xolda o`tkaziladi.

Sinaluvchining aqliy taraqqiyoti darajasini aniqlashda oxirgi natija emas, balki har bir aloxida olingan subtestlar bo`yicha aniqlangan natijalarni haml taxlil qilish katta ahamiyatga ega bo`ladi.

SHu bilan birga umumiy xulosa tuzishda aloxida subtestlar bo`yicha olingan natijalargina emas, boshqa metodikalardan olingan natijalarni haml hisoblag olish muximdir.

2-BOB. PSIXODIAGNOSTIKA FANINI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI.

2.1. Psixodiagnostika fanida “Kichik maktab yoshida bilish jarayonlari psixodiagnostikasi” mavzusiga laboratoriya darsi ishlanmasi.

a) 1. Ijodiy xayolni individual xususiyatlarini tekshirish.

Talabalarga quyidagi vazifa beriladi. 10 yoshdagi bolalar uchun yangi xarakatli o'yinni tuzing agar sizga 10 koptok berilgan bo'lsa va 30 bola.

Tuzish jarayonida quyidagilar yoziladi

1. Tuzilgan o'yinning maqsadi.

2. O'yin o'tkaziladigan sharoitlari.

3. O'yinning natijasi (yutuk nima bilan baxolanadi) bajarilgan vazifani baxolash mezonlari:

1. Yangi o'yin tuzgani uchun - 2 ball

2. 10 koptokni bir vaqtda ishlata olgani uchun - 1 ball

3. 30 bola bir vaqtda o'yinga jalb etilgani uchun - 1 ball

4. O'yinni sodda tushunarli ifodalaganligi uchun - 1 ball

5. Travmalardan xoliligi - 1 ball

Tuzilgan o'yin uchun jami 6 ball olish mumkin. Talabalar tuzgan o'yinlari bayon etilib muxokama qilinadi.

2. Ijodiy xayolni xususiyatlarini aniqlash.

Talabalarga 3 so'z tavsiya etiladi (masalan, ona, novvoy)

Vazifa: so'zlardan 10 daqiqa ichida iloji boricha ko'prok jumlar tuzish (Xar bir jumlada uchchala so'zni ishlatish sharti bilan).

Vazifani baxolash mezonlari:

1. Xar bir tuzilgan jumla uchun 1 ball

2. Ajoyib tarzda tuzilishi uchun - 2 ball

3. Ma'nosiz so'zlar yig'indisi 0 ball

Tajriba yakunida umumiy ballar xisoblanadi va nima uchun ijodiy xayol talabalarda xar xil rivojlangan savol ko'riladi va ijodiy xayolni shakllantirish yo'llari muxokama qilinadi.

b) Tafakkur - inson aqliy faoliyatining yuksak formasi, olamni bilish qurolidir. Borliqdagi narsa va xodisalarni umumiy qonuniy bog'lanishlarini ongimizda aks ettirishdir. Sport faoliyatida tafakkurning ahamiyati va uni rivojlantirish yo'llarini aniqlash uchun talabalar quyidagilarni bilishlari shart. Muxokama uchun savollar.

1. Tafakkur to'g'risida umumiy tushuncha.

2. Tafakkurning nerv-fiziologik asoslari.

3. Tafakkur formalari.

4. Tafakkur turlari.

Ishning maqsadi: Mashg'ulotlarda masallar echish orqali tafakkurning individual

xususiyatlarini o'rganish.

1. Masalalar echish orqali tafakkurning individual xususiyatlarini o'rganish.


Vazifani xal qilishda tafakkuriy individual xususiyatlari, fikrlash tezligi, intellektual aktivlik, tafakkurning sifati aniqlanadi.

Talabalarga blankalar tarqatiladi. Bu blankalarga 25 ta katakchalardan tashkil topgan 4ta kvadrat chizilgan. Xar bir kvadratning ikki tomoni 1dan 5gacha raqamlar bilan belgilangan 25ta katakchaning xar bir qatoridagi raqamlar sonining ko'paytmasini yozish mumkin. Tekshiruvchiga ko'rsatma hozir 5ta kupaytmani kartalarda shunday tanlash kerakki, ularning yig'indisi aytilgan jamiga teng bo'lishi kerak. Joylashtirilayotgan vaqtda xar bir qatorga faqatgina bita kupaytma yozilishga e'tibor berish kerak. Bitta katorga 2ta son yozish mumkin.


Katorlar ichida xama tuzatishlarga ruxsat etiladi. Berilgan ja'mi 39 va 31 sonlar o'rtasida bo'lishi kerak. Birinchi va ikkinchi kvadratda vazifani bajarish vaqtini xisobga olmagan xolda beriladi. Talabalar masalani echish tajribasini o'zlashtirgandan so'ng, ular navbatdagi vazifani bajarishda vaqt xam belgilanadi.

Tajribalar

kvadrati




Jamiq




Jamiq

Zachyot kvadratlari



Jamiq

Vaqt.



Jamiq

Vaqt.

Mashg'ulotda masalalar echish orqali tafakkurning individual xususiyatlarini o'rganish.

Tajriba 1. Masalalarni echish orqali tafakkurnng individual xususiyatlarini o'rganish.

Vazifani xal qilishda tafakkurning individual xususiyatlari, fikrlash tezligi, intellektual aktivlik, tafakkurning sifati aniqlanadi.

№	Tekshiriluvchining familiyasi	Masala echish vaqti	TUZATISHLAR Soni	XATOLAR SONI

Mavzu: Xotira psixodiagnostikasi

Biz sezgan, idrok qilgan narsalar iz qoldirmasdan yo'qolib qetmaydi balki ma'lum darajada esimizda saqlanib qoladi. Bizga ta'sir qilib turgan narsa va xodisalarni esda olib qolish, esda saqlash, qayta tiklash va unitish jarayoniga xotira deb ataladi, Xotiraning ahamiyati beqiyos, chunki bu psixik jarayonsiz odamzot filogenetik va oitogenetik taraqqiyot yo'lini bosib o'taolmas edi.

Ushbu mavzuni o'zlashtirish jarayonida: xotira xaqida tushuncha va uni odam faoliyatidagi ahamiyati. Xotiraning nerv - fiziologik asoslari. Xotira turlari. Xotira jarayonlari, xotiraning individual xususiyatlari xaqida bilimlarga ega bo'lish, xotiraning sport faoliyatidagi ahamiyatli rivojlantirish yo'llarini ochib beradi.

Muxokama uchun savollar.

- 1.Xotira to'g'risida umumiy tushuncha.
- 2.Xotiraning nerv - fiziologik asoslari.
- 3.Xotiraning turlari
- 4.Logik esda qoldirish
- 5.Mexanik esda qoldirish
- 6.Esga tushurish va uning xillari
 - a)tanish va eslash
 - b)ixtiyorsiz va ixtiyoriy esga tushurish.
- 7.Esda saqlash va unutish.

Topshiriq. Xotira jarayonini individual xususiyatlarini tekshirish. Tajriba1. Ko'rish orqali mexanik esda qoldirish.

- 1.V-7
- 2.P-32
- Z.S-54
- 4.I-97
- 6.M-46
- 7.J-25
- 8.U-63
- 9.K-89
- 10.B-37

Tajriba 2. Assotsiativ asosida.

Eshitish orqali mexanik esda qoldirish.

- | | |
|-----------------|--------------------|
| 1.Tosh-finish | b.Trener-tog' |
| 2.Kitob-futbol | 7.Stadion-qalam |
| Z.Lodka-savat | 8.YAdro-sekundomer |
| 4.SHayba-deraza | 9Turist-siyoxdon |
| 5.Signal-osmon | 10.Basketbol-gul |

Tajriba 3.

Eshitish orqali yondoshish assotsiatsiyasi asosida esda qoldirish demakdir.

- | | |
|---------------------|--------------------|
| 1. Qish-chang'i. | 6.Start-yugurish |
| 2. Boksyor-ring. | 7.Gilam -kurashchi |
| 3. Коньki-muz. | 8.Suv -basseyn |
| 4. Snayper-nishon . | 9.Turnik-gimnast |
| 5. Koptok-futbol. | 10.O'yin-tennis |

Tajriba 4.

Ko'rish orqali logik esda qoldirish.

- | | |
|-------------|---------------|
| 1.Ilm. | 6.Faoliyat. |
| 2.Protsess. | 7. Fazlat. |
| 3.Zarurlik. | 8.CHaqqonlik. |
| 4.Kuch. | 9.Mazmun. |
| 5.Ma'no. | 10.Burch. |

Tajriba 5.

Eshitish orqali logik esda qoldirish.

- | | |
|--------------|-----------------|
| 1.Go'zallik. | 5.Jamoatchilik. |
| 2.YAxshilik. | 6.Dadillik. |
| 3.Namuna. | 7.Sadoqatlilik. |
| 4.Ta'rif. | 8.Vazminlik. |

Talabalar o'z tajribalarida uchragan emotsiional xolatlari xaqida axborotlar tayyorlash va ularni muxokama qilish.

XULOSA

Ta'lim jarayoni bevosita muayyan axborotki, harakatlarni, hulq atvorning shakllarini o'zlashtirishga qaratilgandir. O'qish va o'rgatish tushunchalari o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga va o'rgatishga xizmat qiladi.

Psixologiya fanini o'qitish faqatgina boshqa odamlar xulqi va fikrlash usulini qayta o'zgartirish, balki o'zini qayta tashkil etish mahoratini egallashga ham yo'naltirilgan. Psixologiyani o'qitish metodikasining maqsadi shaxsni idrok etish munosabatlari va ularni qayta o'zgartirish, balki o'zini qayta tashkil etish mahoratini egallashga ham yo'naltirilgan. Psixologiya o'qitish metodikasining maqsadi shaxsni idrok etish munosabatlari va ularni qayta o'zgartirish usullarining birlashib ketganligi bilan belgilanadi.

Psixologiyani o'qitishdan maqsad - odamlarning hayot faoliyatida ularning o'zaro aloqa munosabatlarini o'rnatish, bilish usullarini nazariy va amaliy egallab olishdir.

Psixologik idrok etishning xususiyati bilim va harakatlari birligidan iboratdir. SHuning uchun ikki tomonga yo'nalgan, ya'ni, o'ziga va boshqa odamlarga yo'nalgan harakatlar usuliga ega bo'lmagan nazariy idrok etish va harakatlar usullari o'zini anglash birligiga erishish maqsadida amalga oshiriladi.

Albatta, bu maqsadga bugun boshqa maqsadlar tizimini amalga oshirish bilan erishiladi. Bundan tashqari, u insonparvarlik tarbiyasi maqsadlari – dunyoqarashni shakllantirish, jamiyat qurilishida shaxsning amaliy yo'nalganligi bilan bog'liq mutaxassisni o'qitishning ancha dolzarb maqsadlari tizimiga kiritilgan.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T. 2008.
2. G`oziev E. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2002.
3. G`oziev E. Psixologiya. Toshkent, «O`qituvchi», 2003.
4. G`oziev E. Psixologiya o`qitish metodikasi. Toshkent, O`zMU, 2002.
5. G`oziev E., O`tanov B. Hamkorlik psixologiyasi. Toshkent, ToshDU, 1992.
6. G`oziev E. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, O`zMU, 2004.
7. Панибратцева З.М. Методика преподавания психологии. Москва, Просвещение, 1971.
8. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. Toshkent, ToshDPU, 2002.
9. Karimova V. Psixologiya. Toshkent, 2000.
10. S.Ogaev. Ta'lim texnologiyasi. Xalk ta'limi 2000 yil. № 3.
11. B.X. Bobomirzaev Pedagogik amaliyot psixologik muammo sifatida. Tokent – 1997 y.

Интернет манбалари:

1. <http://www.lib.psichology.msu.ru>
2. <http://www.lib.psichology.ru>
3. <http://www.lib.psichology.rin.ru>
4. <http://www.lib.psichology.narod.ru>